

MAHALLA FUQARO MUHOFAZASI TUZILMALARINI FAVQULODDA VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Jo'raqulova Ruxsora Ne'mat qizi

*O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi Fuqaro Muhofazasi
Instituti Fuqaro muhofazasi instituti 2-bosqich magistratura talabasi*

Nazarova Navbaxor Narzullayevna

*Ilmiy rahbar Radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik (RKTBM) kafedrasida professori
t.f.f.d(PhD) dotsent*

Magistrlik dissertasiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi:

Dunyoda oxirgi yigirma yil ichida tabiiy ofatlar tufayli 1,5 mln. kishi qurbon bo'lgan, ularning yarmidan ko'pi zilzilalar sababli halok bo'lgan. Shuningdek, 4,4 milliard kishi jabrlangan: ular yaralangan, boshpanasini yo'qotgan, majburiy ko'chirilgan yoki yordamga muhtoj bo'lgan.

BMTning prognoziga ko'ra, o'tayotgan asrda turli xil tabiiy ofatlar barqaror rivojlanishning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolishi tobora aniq bo'lib bormoqda [9]. BMTning 2023 yildagi hisobotida 2021-2022 yillarda tabiiy ofatlar tufayli iqtisodiy yo'qotishlar 2,5 barobarga o'sdi va taxminan 3 trillion dollarni tashkil etdi deb ta'kidlanadi [10].

Respublikamizda ham seysmik faol hududlar, tog'li hamda tog' oldi hududlarida sellar, kuchkilar va o'pirilishlar rivojlanadigan maydonlar minglab kvadrat kilometrni tashkil qiladi. Aholimizning 70 foizidan ortig'i seysmik faol hududlardagi mahallalarda istiqomat qiladi.

Mamlakatimizda mahalla aholisining xavfsizligini ta'minlash, tabiiy, texnogen hamda ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Favqulodda vaziyatlar ro'y berish tahdidi mavjudligi sababli yuzlab xo'jaliklar yashovchilarini bunday xatarli joylardan xavfsiz makonlarga ko'chirish, yo'llardagi harakatlanishni vaqtincha cheklash, shikastlangan obyektlarni qayta tiklash va boshqa ehtiyotkorlik tadbirlarini o'tkazishda muhim rol o'ynaydigan "Mahalla fuqaro muhofazasi" tuzilmalarini mavqeyini oshirish, harakatlanish tizimini takomillashtirish, sohada innovatsion texnologiyalardan keng foydalanishni tadbir etish masalalarini ilmiy-uslubiy tadqiq etish ushbu dissertasiyaning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi: Mahalla fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarda harakatlanish tizimini yangicha yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish

Tadqiqot ob'ekti: Mahalla aholisi xavfsizligini ta'minlash, ularning mol mulkini muhofaza qilish tizimi

Tadqiqot predmeti: Mahalla fuqaro muhofazasi tuzilmalarini faoliyatini takomillashtirish shakllari

Ilmiy yangiligi:

Mahalla fuqaro muhofazasi tuzilmasi, “mahalla posponi” jamoatchilik tuzilmasi, “chegara posbonlari” ko'maklashuvchi otryad tuzilmasi, shuningdek, O'zbekiston qizil yarim oy jamiyati ko'ngillilarining mahalla aholisi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyatini samarali va ta'sirchan mexanizmini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi:

- Tadqiqotni olib borish jarayonida tizimli yondashuv, analiz, sintez, umumlashtirish va tizimli tahlil uslublaridan foydalanildi.

Aholining hayot faoliyati xavfsizligi aniqlash maqsadida Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi “Hayot faoliyati xavfsizligi ” o'quv markazlari o'qituvchilarning dars jarayoni kuzatildi, aholi o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi, olingan natijalar tahlil qilindi va umumlashtirildi

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:

Respublikamizda ish bilan band bo'lmagan aholining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlar takomillashtirilsa;

- Fuqarolarning hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash yuzasidan olgan bilim va ko'nikmalaridan o'ziga va atrofdagilarga yordam bera olsa, favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi sohasidagi ko'ngilli qutqaruvchi faoliyati mexanizmi ishlab chiqilsa;

- Mahalla fuqaro muhofazasi tuzilmasi, mahalla posponi jamoatchilik tuzilmasii, «chegara posbonlari» kumaklashuvchi otryad tuzilmasi, shuningdek, O'zbekiston qizil yarim oy jamiyati ko'ngillilarining mahalla aholisi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyati tanqidiy tahlil etilib, ta'sirchanligi oshirilsa;

- aholining hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini ta'minlashda uzluksizlik va uzviylik tamoyillariga rioya qilinsa,

- aholining hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini ta'minlash samaradorligi oshadi, tuzilmalarning ko'ngilsiz hodisa va favqulodda vaziyatlarda o'ziga va atrofdagilarga nisbatan to'g'ri hamda tezkor harakat qilish mahorat darajasi oshishiga erishiladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:

Aholining hayot faoliyati xavfsizligi ta'minlash bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlar takomillashtiriladi, nazariy yondashuvlar ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitiladi:

Yangi innovatsion g'oyalar va zamonaviy axborot-kommunikatsiyalari texnologiyalari yutuqlarini qo'llagan holda aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilish dasturlari takomillashtiriladi;

Harakatlar algoritmini ketma-ketligi ishlab chiqiladi va buning natijasida fuqarolarning favqulodda vaziyatlar sharoitida o'zini qo'lga olish va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Ishlab chiqilgan ilmiy metodik tavsiyalardan joylardagi "Hayot faoliyati xavfsizligi" o'quv markazlarida, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida hamda tadqiqot natijalaridan, mashg'ulotlardan tashqari tadbirlarni uyushtirishda samarali foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya ishi: kirish, 3 ta bob, 9 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili):

Aholini tabiiy va texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlardan himoya qilish va bunday vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishi uchun innovatsion shakllari va usullaridan foydalangan holda kunikmalarini oshirish bo'yicha xorij olimlaridan Ivanovich N., Shigapov A., Xarkevich L.A., Aleyev M., I.L.Ukyanovich A.V., Vedeneyeva T.A., Pashkov A.A va boshqalar shug'ullanib ushbu tadqiqotlar yunalishida salmoqli ilmiy ishlarni bajarganlarva muayyan darajada ilmiy natijalarga erishganlar.

Yurtimiz olimlari Raximjonova D.X. , Azimov X.G. mahalla aholisini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga, fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligi sohasida tayyorlash bo'yicha, Xaydarov.R.X, Qurbonov.B.Yo, Shirinov.K.J fuqarolar uchun zilzila vaqtida tegishli harakat va tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha, N.N. Nazarova, N.SH. Bozorova S.I. Xusanova, N.SH. Mannapova va boshqalar aholini favqulodda vaziyatlarga o'qitish bo'yicha tadqiqotlar olib borib turli yillarda o'z tadqiqotlari asosida muhim nazariy va amaliy natijalarga erishgan